

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 246 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	



RESURSLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI

Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Orcid: 0009-0009-3622-2573

Dilkabutilka@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada resurslarni soliqqa tortish amaliyotining xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda ularni milliy soliq tizimida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabiiy resurslardan foydalanish uchun to'lovlar, ekologik soliqlar, karbon soliqlari va foydali qazilmalar rentasini soliqqa tortish mexanizmlari xalqaro amaliyot misolida o'rganilgan. Shuningdek, AQSh, Kanada, Norvegiya, Rossiya, Xitoy va Qozog'iston kabi davlatlarda resurs soliqlarining iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil etilgan. Maqolada xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning afzalliklari va muammolari yoritilib, milliy soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: resurs soliqlari, soliqqa tortish nazariyasi, tabiiy resurslar, fiskal siyosat, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, soliq tushumlari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract: This article analyzes the experience of foreign countries in the practice of resource taxation and the possibilities of their application in the national tax system. The study examines the mechanisms of taxation of natural resource use, environmental taxes, carbon taxes and mineral rents using international practice. It also analyzes the role of resource taxes in ensuring economic efficiency in countries such as the USA, Canada, Norway, Russia, China and Kazakhstan. The article highlights the advantages and problems of applying foreign experience in the conditions of Uzbekistan, and develops proposals and recommendations for improving national tax policy.

Key words: resource taxes, taxation theory, natural resources, fiscal policy, economic efficiency, environmental sustainability, tax revenues, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация: В данной статье анализируется опыт зарубежных стран в практике ресурсного налогообложения и возможности его применения в национальной налоговой системе. В исследовании рассматриваются механизмы налогообложения природопользования, экологических налогов, углеродных налогов и минеральной ренты с использованием международной практики. Также анализируется роль ресурсных налогов в обеспечении экономической эффективности в таких странах, как США, Канада, Норвегия, Россия, Китай и Казахстан. В статье освещаются преимущества и проблемы применения зарубежного опыта в условиях Узбекистана, а также разрабатываются предложения и рекомендации по совершенствованию национальной налоговой политики.

Ключевые слова: ресурсные налоги, теория налогообложения, природные ресурсы, фискальная политика, экономическая эффективность, экологическая устойчивость, налоговые поступления, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Resurslarni soliqqa tortish bugungi kunda iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahon miqyosida tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularni qaytatiklash va ekologik muvozanatni saqlash maqsadida resurs soliqlari tizimi keng qo'llanilmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurs soliqlari nafaqat davlat byudjetini to'ldirish vositasi, balki tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, Norvegiya, Kanada, AQSh, Avstraliya, Rossiya va Xitoyda foydali qazilmalarni, neft-gaz resurslarini, suv va o'rmon boyliklarini soliqqa tortishning o'ziga xos mexanizmlari shakllangan. Ushbu mamlakatlar tajribasi soliq stavkalari, rentaviy to'lovlar, ekologik soliqlar va resurslardan foydalanish huquqi uchun to'lovlarni o'z



ichiga olgan kompleks yondashuvni o'zida mujassam etadi. Mazkur tadqiqotda xorijiy mamlakatlar resurs soliqlar tortish amaliyoti o'rganilib, ularning O'zbekiston milliy soliq tizimida qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu orqali resurs soliqlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda byudjet daromadlarini diversifikatsiya qilishning samarali yo'llari aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek olimlardan G'.A.Safarov "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida korxonalar va tashkilotlar tomonidan tabiiy resurslar bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan kam chiqitli investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llash, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimida ham qo'llashni ilmiy asoslagan, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va undirishda ular foydalanayotgan yerning kadastr qiymatidan undirish mexanizmini joriy qilish masalasini taklif qilgan, yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlarni hisoblashda hisobga olish usulini taklif etgan hamda bu soliqni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqqan[1].

D.Qurbanov esa o'zining dissertatsion va monografik tadqiqotlari asnosida O'zbekistonda "alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda suv resurslaridan tejimli va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ularga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish taklifini ishlab chiqqan, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashni asoslagan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlarining yillik yalpi tushumi 1 mlrd. so'mdan oshgan taqdirda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari tarkibiga kiritilishi taklifi" ni ishlab chiqqan[2].

A.Toshqulov qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq to'lovchilarning soliq to'lovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash, yangi barpo etiladigan bog', tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarining metodologik yo'nalishlarini ishlab chiqqan[3].

Iqtisodchi S. Kuznesov tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash masalalarini nazariy jihatdan tizimlashtirib, jarayonli paradigma sifatida uning bir qancha muhim ilmiy iqtisodiy tadqiqot qoidalari yoritib bergan. Xususan, "Moliyaviy qo'llab quvvatlash" konsepsiyasi pul mablag'lari yoki moddiy aktivlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etilishini e'tirof etadi[4].

Amerikalik iqtisodchilar Zvi Bodi va Robert Mertonlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida ma'lum ob'ektlarga nisbatan qabul qilinadigan tadbirlarni amalga oshirish harakatlari majmuasi va ketma ketligi ekanligini ilgari surishgan. Ular moliyaviy ta'minot bilan bog'liq qo'llab quvvatlash tizimi moliyaviy kategoriya sifatida moliyaning iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga asoslanishi lozimligini e'tirof etishadi[5].

Iqtisodchi S. V. Barulin, moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib o'tadi. Uning fikricha moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy ta'minot tizimini ma'lum noaniqliklar sharoitida optimal ta'minlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi[6].

Iqtisodchi I.V. Ziyatkovskiyning fikricha, moliyaviy qo'llab quvvatlash yahlit tizim sifatida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir[7].

T.V. Sokolskaya qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablag'lar bilan ta'minlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini ta'kidlaydi[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan, soliq tizimini qiyosiy tahlil qilish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy ilmiy va o'quv adabiyotlari hamda mamlakatlarning soliq tizimi bilan bog'liq qonunchligini tahlil qilish, ularni qiyosiy taqqoslash asosida shuni ta'kidlash mumkinki, jahon amaliyotida resurslarni soliqqa tortish jarayonida ularni qaysi maqsadlarda soliqqa tortish masalasiga qarab mamlakatlar iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlari belgilab olinadi, yoki teskarisi, ya'ni davlatning iqtisodiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, soliq siyosatining taktik yo'nalishlari belgilab olinadi. Masalan, AQShda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida mamlakat ichidagi mavjud tabiiy resurslardan "kelajak avlodning ulushini saqlab qolish" tamoyiliga asoslanib,



boshqa soliqlar singari resurs soliqlarini soliqqa tortish masalalari hal qilinadi. Rossiyada esa, mamlakatning davlat budjetining asosiy qismini tabiiy resurslar, asosan neft va gaz mahsulotlarini soliqqa tortish ustuvorlik siyosati esa, boshqa yo'nalishdagi iqtisodiy siyosatning yo'nalishlarini belgilashda muhim omil sifatida qaraladi.

Suv resurslariga nisbatan progressiv soliq siyosatini qo'llaydigan davlatlar sirasiga shuningdek, Daniya davlatini ham misol tariqasida keltirish mumkin.



1-rasm. Resurslarni soliqqa tortishda xorijiy amaliyot yondashuvlari¹

Daniyada suvdan foydalanganlik uchun soliqlarni undirishda ikki xil tartibda yondashiladi Birinchisi, bu suv iste'moli uchun alohida soliq undirilsa, suv resurslarini himoya qilishni rag'batlantirish uchun alohida yodashuv mavjud (o'rtacha har bir m³ suv uchun 0,03 yevrodan 0,85 yevrogacha soliq undiriladi).

Ayrim davlatlarda esa, resurslar balansini ta'minlashga qaratilgan siyosatdan kelib chiqib, davlat resurslarni soliqqa tortish taktik yo'nalishlarini o'zgartirib turadi. Masalan, Isroil suvdan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq stavkalarini suvning vaqti va iste'mol darajasiga qarab tabaqalashadi, asosan qish faslida soliq miqdori ko'proq (o'rtacha 0,7 yevro), yilning qolgan fasllarida esa, suvning iste'molidan kelib chiqib undiriladi. Agar, suvning iste'moli o'rnatilgan me'yordan ko'proq iste'mol etilgan bo'lsa, amaldagi stavkaga nisbatan besh barobar miqdorda undiriladi. Bundan ko'rinadiki, bu davlatda resurs soliqlari asosan resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan funksiyaga ustuvorlik beriladi va progressiv soliqqa tortish rejimlariga asoslanadi. Ma'lumki Yevropaning Italiya, Portugaliya, Fransiya, Germaniya, Polsha kabi davlatlarida keyingi yillarda qurg'oqchilikning kuchayib borishi, bu mamlakatlarda suv resurslaridan foydalanishni yanada kuchaytirishga hamda uning tejamli iste'molini rag'batlantirishga qaratilgan soliq siyosatiga alohida urg'u berilmoqda. Jumladan, Polsha mamlakatida suvdan foydalanganlik uchun undiriladigan soliqni undirish, stavkani qo'llash va imtiyozlarni berishda suvning manbayi, sifati, suv iste'molining hududi, iste'mol qilish joyiga qarab amalga oshirilsa, Finlyandiya, Italiya kabi davlatlarda ham xuddi Isroil va Daniya davlatlari kabi suvdan foydalanganlik va iste'moli uchun soliq miqdori belgilangan me'yor doirasidagi hajmdan alohida tartibda, suv iste'moli me'yoridan oshgan hajmiga nisbatan alohida (oshirilgan miqdorda) soliq rejimi qo'llaniladi.

Germaniya ham xuddi O'zbekiston soliq tizimidagi kabi suv iste'moli uchun olinadigan soliqni suv resurslarining olinish manbayiga: yer osti va yer ustidagi resurslarning iste'mol etilishi, shuningdek, suvning qaysi maqsadlarga ishlatilishi (masalan, biznes yoki qishloq xo'jalik, kommunal maqsadlarida va sh.k.) darajasiga qarab mahalliy munitsipalitet va federal shtatlar tomonidan soliq stavkalari (kub metr uchun 0,31 dan 0,0003 yevrogacha) tasdiqlanadi.

"Buyuk Britaniyada tabiiy resurslardan foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir qator soliq va yig'img'lar mavjud: poligon solig'i har bir tonna chiqindi uchun 13 funt sterling miqdorida undiriladi, minimal stavka esa har bir tonna inert chiqindilar uchun 2 funt sterlingni tashkil qiladi. Dengizda elektr energiyasidan foydalanganda kVt/soat uchun 0,43 funt sterling, 0,15 kVt/soat gaz, 0,96 funt sterling miqdorida iqlim o'zgarishi

¹ Xalqaro amaliyotga asoslanib muallif tomonidan tuzilgan.



bo'yicha yig'im qo'llaniladi. Suyultirilgan gazning kilogrammi uchun kVt/soat va qattiq yoqilg'ining kilogrammi uchun 1,17 funt sterling"².

Yevropada resurslarni soliqqa tortish jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ham O'zbekiston soliq tizimidagi kabi cheklangan va cheklanmagan, milliy boylik hisoblangan resurslardan foydalanish evaziga jamiyat manfaatlarini uchun majburiy to'lovlarni undirish asosida, bir tomondan, resurslardan foydalanuvchilar (iste'molchilar)ning yuqori miqdorda marjinal foydalarini adolatli taqsimlash mexanizmi orqali ijtimoiy mezonlarni o'rnatish bo'lsa, boshqa tomondan bu kabi muhim strategik resurslardan foydalanish evaziga jamiyat, tabiatga va insonlarga keltirilgan zararlarning o'rnini bir qismini ushbu soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazish amaliyoti qo'llaniladi.

Resurslarni soliqqa tortishning xorij tajribasining tadqiqi shundan dalolat beradiki, ayrim mamlakatlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy e'tiborni ya'ni, daromad manbaini neftdan keladigan daromadlarni progressiv soliqqa tortish siyosatini qo'llaydi va unga oid o'zlarining "budjet qoidalari"ni ham shakllantiradi. Masalan, Afrikaning Angola, Nigeriya davlatlari Osiyoning Malayziya, Birlashgan arab davlatlari kabi davlatlarda asosiy e'tiborni shunga qaratsa, AQSh, Norvegiya, Xitoy, Rossiya davlatlarida ham shunga o'xshash budjet-soliq siyosatini ko'rish mumkin. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda Rossiya kabi davlatlarda katta ulush resurs soliqlar hissasiga to'g'ri kelsa, AQShda 2-4 foiz, Kanada 7-8 foiz, Angliya hamda Fransiya davlatida biroz ko'proq, ya'ni 10-12 foizni tashkil qiladi. Tadqiqotimizning avvalgi bobida ko'rib o'tganimizdek, O'zbekistonda esa resurs soliqlarining davlat budjetidagi ulushi esa, 2-3 foiz atrofida bo'lib, dunyodagi aksariyat davlatlarga nisbatan biroz pastroq hisoblanadi.

Resurslarni soliqqa tortish tajribasida Rossiya tajribasini alohida keltirib o'tish mumkin. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, bu mamlakatda federal budjet daromadlari va xarajatlarning o'rta muddatli prognozlarini belgilovchi asosiy iqtisodiy dastaklardan biri bu – energiya mahsulotlari (neft va gaz)ning jahon bozoridagi konyukturasi va valyuta kurslarining o'zgarishiga asosan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tushadigan soliq tushumlari muhim ahamiyat kasb etadi va bu Rossiyaning "budjet qoidalari"ning asosini tashkil qiladi.

"Budjet qoidalar" aslida dunyoning ko'pgina mamlakatlari (AQSh, Chili, Slovakiya, Ruminiya, Portugaliya, Polsha, Avstriya, Ekvador, Kolumbiya, Isroil, Rossiya va shu kabi)da keng qo'llaniladiki, ularda malakatning bosh moliyaviy g'aznasi daromadlarining manbalar kesimidagi daromad manbalari va xarajatlarning yo'nalishlari va ularga nisbatan cheklovlar (masalan, davlat qarzi hajmi, budjet taqchilligi hajmi, budjet daromadlari va xarajatlari kabi budjet parametrlari cheklanishi) va minimal miqdorlar belgilab olinadi. Shu jihatdan olganda "budjet qoidalari" "mamlakat budjeti va iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda prognoz qilib bo'lmaydigan omillar ta'sirini kamaytirishning muhim vositasi, shuningdek, u neft va gaz budjeti daromadlarini sterilizatsiya qilish va suveren mablag'larni to'plash orqali iqtisodiyoti resurslarga asoslangan mamlakatlar uchun davlat budjeti va ichki iqtisodiy sharoitlarning energiya narxlariga bog'liqligini kamaytirish mexanizmi hisoblanadi"³.

1-jadval. Xorijiy mamlakatlarda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti) stavkalari⁴

Foydali qazilmalar turlari	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning (royalti) bazaviy stavkalari, %da						
	Rossiya	Kanada	Meksika	Argentina	Laos	Vetnam	Tanzaniya
Mis	8,0	15 (max)	7,5	13,0	7,0	13,0	6,0
Oltin	6,0	15 (max)	7,5	8,0	8,0	15,0	7,0
	Rossiya	Qozog'iston	Mongoliya Gana	Kolumbiya	Kitay	Zambiya	Keniya
Volfram	8,0	6,0	5,0	4,6	6,5	5,0	8,0
	Rossiya	Qozog'iston	Kanada	Argentina	Kolumbiya	Vetnam	Keniya
Uran	5,5	18,5	15 (max)	8,0	10,0	10,0	10,0
O'zbekiston (2023 yil uchun %)							
Mis	7						
Oltin	7						
Volfram	2,7						
Uran	8						

2 Марин Е.В. Зарубежный опыт правового регулирования платежей за пользование недрами // Вопросы российского и международного права. 2019. Том 9. № 1В. С. 317-323.

3 Сафина Е.С.Зарубежная практика налогообложения природных ресурсов, <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnaya-praktika-nalogooblozheniya-prirodnih-resursov/viewer>.

4 https://buxgalter.uz/publish/doc/text174522_nima_uchun_er_qaridan_foydalanuvchilarga_soliq_solish_qoidalari_uzgartirilmoqda



Rossiyaning “budget qoidalari”ga ko’ra, federal budget xarajatlarining maksimal hajmiga nisbatan cheklovlar o’rnatilgan bo’lib, bu cheklovlar neftning bazaviy narxi bo’yicha hisoblangan neft va gaz daromadlarining bazaviy hajmi (2017-yilda Uralsning bir barreli uchun 40 AQSh dollari, 2018-yildan 2% yillik indeksatsiya bilan) bog’liq qilib qo’yilgan. Rossiyada “budget qoidalari” “xomashyo eksportidan tushgan daromadni qayta taqsimlovchi mexanizmdir. Uning asosiy vazifasi tovar narxlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini kamaytirishdan iborat. Rossiyada bu mexanizm dastlab budjetni neft narxining o’zgarishi ta’siridan himoya qilishga qaratilgan”⁵. Shuningdek, mamlakatning 2023-2025-yillar mo’ljallangan Yangi konsepsiyasida “neft va gazning asosiy daromdlari yiliga P8 trillionni tashkil etishini nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 2026-yildan boshlab har yili bu miqdor 4 foizga indekslanadi”⁶.

Ushbu keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida dunyoning ayrim davlatlari va O’zbekistonda ham muhim strategik va yuqori qiymatli moliyaviy resurs sifatida o’ringa ega tabiiy resurslar bo’yicha soliq stavkalarini qiyosiy tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, misga nisbatan soliq stavkalari dunyo miqyosida o’rtacha 7-15 foiz atrofida tabaqalashgan bo’lsa, oltinga nisbatan soliq stavkalari ham shunga yaqin soliq stavkasiga belgilangan. Tahlil qilinayotgan mamlakatlarda ham jumladan, O’zbekistonda ham volfram mahsulotiga o’rnatilgan soliq stavkasi boshqa qazilma boyliklarga nisbatan kamroq hisoblanadi, O’zbekistonda esa, dunyo mamlakatlarida eng past soliq stavkasi o’rnatilganlardan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo amaliyotiad resurslarni, ayniqsa tabiiy resurslarni soliqqa tortishda royalti shaklidagi to’lovdan foydalanib kelinadi, ayniqsa bundan aksariyat rivojlangan davlatlarda keng qo’llanilib kelinadi. Aslida mohiyatan olib qaralganda royalti bu davlat tomonidan sotilgan tabiiy resurslardan foydalanishdan olingan majburiy to’lov bo’lib, odatda bu to’lov tabiiy boyliklar bilan bog’liq konlarni o’zlashtirish va ularning zaxiralarini aniqlashga ruxsat berilganlik uchun davlatga to’lanadigan to’lov hisoblanadi, bunda davlat o’zining milliy boyliklarni tasarruf etish huquqining boshqalarga vaqtincha berganlik uchun davlat budjetiga qo’shimcha mablag’larni jalb qilish jarayoni kechadi.

Shu bilan birgalikda rolyati to’lovlari soliq to’lovchilar uchun riskni keltirib chiqarishi mumkin, ya’ni, royalti faqat tabiiy resurslar konini qidirish va o’zlashtirish jarayonida undiriladiki, bunda to’lamaydigan loyihaga qo’shimcha moliyaviy yuk bo’lib qolishi ehtimoli yuqori, bundan tashqari yer qa’ri boyliklaridan foydalanuvchilarga investitsiyalarning daromadliligi bo’yicha kafolat mavjud bo’lmaydi, ya’ni, royalti to’lab risk qilinib qilingan xarajatlar o’rni qoplanmasligi mumkin, shu jihatdan olganda yer qa’ri boyliklaridan foydalanuvchilar royalti to’lovlariga nisbatan investitsion chegirmalar berishni xoxlaydi. Shundan kelib chiqib ayrim davlatlar royalti to’lovlaridan voz kechganlar (masalan, Meksika, Peru, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Norvegiya kabi) davlatlarda royalti asosidagi soliqlarni kamaytirish va real foydadan soliq imtiyozlariga o’tish kuzatilmoqda, ayrim mamlakatlarda tog’-ko’kon sanoatiga sarmoya kiritish uchun soliq imtiyozlaridan foydalanishga katta ustuvorlik berilmoqda. Masalan, bu kabi davlatlar sirasiga AQShni keltirish mumkin.

“Amerika Qo’shma Shtatlarida foydali qazilmalarning kamayishi uchun imtiyozlarning 2 ta yo’nalishi mavjud. Daromadlardan birida konlarni qidirish va o’zlashtirish xarajatlari va asosiy fondlarning qoldiq qiymati (konni o’zlashtirish natijasida yaratilgan) alohida ko’rsatilgan. Ikkinchisida, litsenziya va ijara to’lovlari sotishdan olingan foydadan hisoblanadi”⁷. “AQShda tabiiy resurslar sektoridagi soliqlarga, birinchi navbatda, atrof-muhitni muhofaza qilish soliqlari, neft qazib olish va qayta ishlash soliqlari kiradi. Federal ekologik soliq 0,12% stavkani o’z ichiga oladi. Ushbu soliq korporatsiyalardan, agar ularning daromadi 2 million dollardan oshsa, undiriladi. Ushbu soliqni undirish natijasida olingan mablag’lar atrof-muhitga yetkazilgan zararni kamaytirish va bartaraf etishga yo’naltiriladi. Keyingi soliq turi neft va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash uchun olinadigan soliqlardir. Qo’shma Shtatlar subyektlari (shtatlari)ning yarmidan ko’pi, agar ular mavjud bo’lsa, ushbu soliqlarni undiradilar. Soliq stavkasi va resurslar ro’yxati muayyan davlatga bog’liq”⁸.

Ko’pgina mamlakatlarda (Xitoy, AQSh, Norvegiya, BAA, Meksika va sh.k.) yer qa’ridan foydalanishda amortizatsiyani hisoblashda tezlashtirilgan usullardan foydalanilish imkoniyatini beradiki, soliq to’lovchilar yuqori foyda normasi darajasi va prognozidan kelib chiqib, kapital qo’yilmalarni hisobdan chiqarishni tezlashtirish imkoniga ega bo’ladilar, ushbu usul 2022-yildan boshlab O’zbekiston soliq tizimida ham ilg’or tajriba sifatida qo’llanila boshlandi. Bundan tashqari dunyo amaliyotida resurslarni soliqqa tortishda, yuqori qo’shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlar, ayniqsa tog’-ko’kon sanoatidagi korxonalarda xarajatlarni kamaytirishni ta’minlash maqsadida tashqaridan olib kiriladigan asbob-uskunalarini bojxona bojaridan ham tayyor mahsulotlarni eksport qilishda soliqdan imtiyozlar qo’llashga keng urg’u beriladiki, bundan asosiy maqsad noyob va yuqori qiymatli mahsulotlarning eksportini rag’batlantirish orqali mamlakatning to’lov balansini ham yaxshilashga erishish qilib belgilab olinadi (masalan Rossiya Federatsiyasida).

5 <https://quote.rbc.ru/news/article/63be8a839a79478a60e73436>.

6 <https://quote.rbc.ru/news/article/63be8a839a79478a60e73436>.

7 Чхетия Л.Б. Опыт зарубежных стран налогообложения природных ресурсов на примере твердых полезных ископаемых. jurisprudence / «Colloquium-journal»#15(39), 2019.

8 Марин Е.В. Зарубежный опыт правового регулирования платежей за пользование недрами // Вопросы российского и международного права. 2019. Том 9. № 1В. С. 317-323.



Aksariyat xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga e'tibor beradigan bo'lsak, ulardaa yer qa'ridan foydalanish bilan bog'liq majburiy to'lovlarning bir nechta turlarini keltirish mumkin: "muayyan hodisalar sodir bo'lganda undiriladigan bir martalik yig'im, shuningdek, muntazam to'lovlar. Ikkinchisiga konlarni qidirish, baholash, qidirish va boshqalar uchun to'lovlar kiradiki, bunday to'lovlar ijara haqi deb ataladi"⁹.

Biz tadqiqot ishimiz mavzusini resurslarni soliqqa torish masalasini asosiy obyekt sifatida belgilab olgan holda, dissertatsiya ishiga qo'yilgan hajmdan kelib chiqib, asosan ilmiy tahlillarimizda yer va suv resurslarini hamda yer qa'ridan foydalanish (iste'mol etish) jarayoniga keng e'tibor qaratgan holda mulk kabi resurslarni soliqqa tortish masalasini chuqur tahlil qila olmadik. Biroq, mazmunan olib qaralganda (bu bo'yicha birinchi bobda keltirib o'tilgan) mulk predmetlari ham resurs hisoblanib, ularni soliqqa tortish muhim masalalardan sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda, resurslarni soliqqa tortish xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini qiyosiy o'rganishda ko'chmas mulk shaklidagi resurslar kesimida biroz to'xtalib o'tishni lozim deb hisobladik.

Latviyada soliq mulkning kadastr qiymati asosida hisoblanadi. Yer va binolar uchun ko'chmas mulk solig'i 0,2 dan 1,5 foizgacha qo'llaniladi. Mahalliy hukumat 0,2% dan 3% gacha stavkalarini belgilashi mumkin, agar 1-noyabrgacha soliq stavkalarini e'lon qilmasa, qonunda belgilangan stavkalar qabul qilinadi. Qonunchilikda ko'chmas mulk solig'i stavkalari quyidagicha belgilangan: yer, binolar va muhandislik inshootlarining kadastr qiymati bo'yicha 1,5% standart stavka; turar-joy binolari, ularning qismlari va turar-joy bo'lmagan binoning funksional ravishda yashash uchun ishlatiladigan hamda savdo yoki biznesda ishlatilmaydigan har qanday qismlari bo'yicha progressiv stavka:

- a) kadastr qiymatining 0,2 %i (56 915 yevrogacha).
- b) kadastr qiymatining 0,4 %i (56 915 yevro va 106 715 yevro orasida).
- s) kadastr qiymatining 0,6 %i (106 715 yevrodan yuqori).

Resurslarni soliqqa tortish amaliyotining xorijiy mamlakatlar tajribasida umumiy xususiyat (o'xshashlik)lar bilan bir qatorda o'ziga xos jihatlari ham mavjuddir. Bu xususiyatlar quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, resurslarni soliqqa tortish barcha davlatlar uchun uzoq tarixiy evolyutsion bosqichlarda rivojlanib kelmoqda, bunda har bir olingan davlatning o'ziga xos tajribalari ham rivojlanib bormoqda;

ikkinchidan, resurslarni soliqqa tortish masalasi har bir davlatning umumiy moliyaviy-soliq siyosatidan kelib chiqsa, boshqa tomondan har qaysi olingan mamlakatda resurslarning mavjudligi va ularning kamyoblighi hamda cheklanganligi ularni soliqqa tortish tartiblari va amaliyotiga ta'sir qilib kelmoqda;

uchinchidan, aksariyat davlatlarda resurslarni soliqqa tortishda xuddi O'zbekiston soliq tizimidagi singari birinchi maqsad sifatida ulardan samarali foydalanishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvorligi, keyingi maqsad sifatida esa davlat budjetini moliyalashtirish masalasi qo'yilgan;

XULOSA VA TAKLIFLAR

Resurs soliqlarini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish. Resurs turi va ekologik ta'siriga qarab differensial soliq stavkalarini joriy etish. Ekologik soliqlar tizimini kengaytirish va resurs rentasini soliqqa tortishni kuchaytirish. Raqamli monitoring tizimini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash. Xorijiy tajribani o'rganish va milliy soliq tizimiga moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. F.A.Сафаров. Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертatsияси автореферати. Т.Академия. 2006 й. 26 б.
3. Д.Р.Қурбанов Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг молиявий механизмлари такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2020. -38 б.
4. З.А.Х.Тошқулов. “Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари”. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2021. -47 б
5. Kuznetsov, S.A. (1998). Great Dictionary of the Russian language. – St. Petersburg, “Norint”
6. Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). Finance. – Moscow, Publishing House “Williams”, 2013. Bolshakov, S.V. (2006). Finance companies. Theory and practice. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.
7. Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.
8. Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Ternopol, Economic thought, 215 p.
9. Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness, issue 1, p. 140-146.
10. Nasimdjanoj Yunusjon Zoxidovich “Resurslarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish” I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati T.: 2025. -18 б.

9 Марин Е.В. Зарубежный опыт правового регулирования платежей за пользование недрами // Вопросы российского и международного права. 2019. Том 9. № 1В. С. 317-323.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>